


VIII.XIZMATLAR

2024- yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 7 318,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 116,1 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1-iyul holatiga ko'ra xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining (18 147 birlikni) 14 956 birligi kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

XIZMATLAR SOHASINI STATISTIK HISOBI

Xizmatlar sohasi bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir.

Bu mamlakatning savdo, professional va maishiy xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan iqtisodiy tarmog'idir.

Xizmatlar sohasi, moddiy ishlab chiqarish bilan taqqoslaganda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Birinchidan, tovarlardan farqli o'laroq, xizmatlar asosan bir vaqtning o'zida ishlab chiqariladi va iste'mol qilinadi va ularni saqlash man etiladi. Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish ko'pincha mahsulotlar ishlab chiqarishga ketgan vaqtdan farqlanadi, garchi sanoatda texnik xizmat ko'rsatish roli ortib bormoqda, bu uskunalarni ta'mirlash, sotishdan keyingi xizmatlar va tovarlarni sotish bilan bog'liq boshqa xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Aytish joizki, ko'p hollarda xizmatda mahsulot elementi mavjud, xuddi mahsulot sotishda xizmat elementi mavjud bo'lgani kabi.


Xizmatlar – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi


<i>Shahar va tumanlar nimui</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Xorazm viloyati	7 318,0	100,0	116,1
Urganch shahri	2 759,0	37,7	122,8
Xiva shahri	341,3	4,7	111,1
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	398,1	5,5	112,0
Gurlan	354,2	4,8	112,4
Qo'shko'pir	367,5	5,0	114,1
Urganch	611,3	8,3	110,1
Hazorasp	542,0	7,4	117,6
Tuproqqal'a	156,0	2,1	113,1
Xonqa	471,0	6,4	111,1
Xiva	368,3	5,0	110,3
Shovot	362,8	5,0	113,0
Yangiariq	324,3	4,4	111,1
Yangibozor	262,2	3,7	111,3

Aholi jon boshiga xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi, ming. so'mda



O'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2024- yil yanvar- iyun)

	Hajm, ming. so'mda	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	3 654,6	113,9
Urganch sh	17 950,3	120,5
Xiva sh	3 447,2	109,2
Bog'ot	2 253,1	109,8
Gurlan	2 246,3	110,4
Qo'shko'pir	2 011,6	112,0
Urganch	2 850,0	107,8
Hazorasp	2 620,8	115,4
Tuproqqal'a	2 617,0	110,7
Xonqa	2 365,8	109,1
Xiva	2 370,0	108,1
Shovot	2 005,8	110,9
Yangiariq	2 625,6	109,1
Yangibozor	2 825,1	109,4

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarni rivojlantirish o'rtacha aholi jon boshini rivojlanish ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Bog'ot va Urganch tumanlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan tumanlar: Urganch, Urganch va Urganch tumanlariga qaraganda yaxshiroq ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Urganch va Urganch tumanlari hamda, Xiva shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari Qo'shko'pir, Bog'ot va Hazorasp tumanlariga nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA ISHLAB CHIQRILGAN XIZMATLAR

Bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar bilan bog'langan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan bozor xizmatlari

Xizmat turlarining nomi	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda		Ulushi, % da	O'rish sur'ati, % da
	2023- y yanvar-iyun	2024- y yanvar-iyun		
Xizmatlar – jami	5 744,1	7 318,0	100,0	116,1
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>				
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	330,6	416,7	5,7	121,3
moliyaviy xizmatlar	1 328,3	1 941,6	26,5	138,3
transport xizmatlari	1 135,2	1 503,6	20,5	110,9
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	1 054,7	1 374,9	18,8	104,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	189,1	250,0	3,4	114,0
savdo xizmatlari	1 347,9	1 564,5	21,4	108,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	133,5	157,5	2,2	110,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	329,6	353,2	4,8	100,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	128,9	147,5	2,0	108,1
ijara xizmatlari	106,8	109,3	1,5	88,9
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	237,8	289,4	4,0	109,3
shaxsiy xizmatlar	213,0	264,1	3,6	110,5
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	91,9	102,9	1,4	97,2
boshqa xizmatlar	171,5	217,7	3,0	113,5

2024- yil yanvar – iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida moliyaviy xizmatlari 26,5 %, transport xizmatlari – 20,5 %, savdo xizmatlar – 21,4 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – 5,7 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 4,8 % ni egallaydi.


Taqqoslash uchun: 2023- yil yanvar-iyun oylarida xizmatlarning umumiy hajmida savdo xizmatlari 23,5 %, transport xizmatlari – 19,8 %, moliyaviy xizmatlar – 23,1 %, ta'lim xizmatlari – 5,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,8 % ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari

Savdo xizmatlari – hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya’ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

2024-yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari hajmi 1 564,5 mlrd. so‘mga yetdi. 2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o‘shish sur’ati 108,7 % ga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda



Shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari hajmi (2024-yil yanvar-iyun)


Shahar va tumanlar	Hajm mlrd. so‘mda	O‘shish sur’ati, 2023- yil yanvar-iyun oyiga nisbatan % da
Xorazm viloyati	1 564,5	108,7
Urganch shahri	367,3	116,1
<i>Xiva shahri</i>	91,3	108,6
<i>tumanlar:</i>		
Bog‘ot	97,8	107,0
Gurlan	109,7	111,8
Qo‘shko‘pir	110,3	109,9
Urganch	164,4	100,0
Hazorasp	126,0	102,2
Tuproqqal’a	48,2	110,5
Xonqa	107,8	103,7
Xiva	92,4	109,6
Shovot	87,8	106,6
Yangiariq	90,7	109,2
Yangibozor	70,8	110,5

Avtomobil transporti xizmatlari

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo‘lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo‘lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo‘yicha xizmatlar va ko‘chish bo‘yicha xizmatlar kiradi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 503,6 mlrd. so‘mga yetdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o‘shish sur‘ati 110,9 % ga yetdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 20,5 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari

<i>Shahar va tumanlar (2024- yil yanvar-iyun)</i>	<i>Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda</i>	<i>Ulushi, % da</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
Xorazm viloyati	1503,6	100,0	110,9
Urganch sh	269,9	18,0	107,0
Xiva sh	41,6	2,8	110,5
Bog‘ot	120,1	8,0	107,1
Gurlan	113,5	7,5	112,4
Qo‘shko‘pir	103,2	6,9	114,3
Urganch	183,7	12,2	113,2
Hazoras	116,4	7,7	105,9
Tuproqqal’a	42,9	2,8	109,5
Xonqa	155,6	10,4	118,7
Xiva	103,3	6,9	112,0
Shovot	85,3	5,7	108,8
Yangiariq	84,6	5,6	116,0
Yangibozor	83,5	5,5	110,8

Moliyaviy xizmatlar

Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to‘lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo‘yicha xizmatlari uchun to‘lanadigan haq hisobiga ko‘ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlarning hajmi 1 941,6 mlrd. so‘mga yetdi. Jami ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi 26,5 % ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o‘shish

Moliyaviy xizmatlarning tarkibi (2024- yil yanvar-iyun)



Moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari (pul mablag'larini olish va qayta taqsimlash bo'yicha xizmatlar) ustunlik qiladi. 2024- yil yanvar-iyun oylarida ularning ulushi 93,5 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	1941,6	100,0	138,3
Urganch sh	1172,6	60,4	139,2
Xiva sh	31,0	1,6	138,8
Bog'ot	50,9	2,6	135,1
Gurlan	36,3	1,9	136,7
Qo'shko'pir	45,0	2,3	137,8
Urganch	79,0	4,1	136,3
Hazorasp	195,3	10,0	137,6
Tuproqqal'a	25,3	1,3	139,1
Xonqa	83,0	4,3	135,8
Xiva	65,2	3,4	136,9
Shovot	79,8	4,1	136,8
Yangiariq	51,8	2,7	137,6
Yangibozor	26,4	1,3	136,4


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi – amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 416,7 mlrd. so‘m darajasida qayd etildi va 2023- yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘shish sur‘ati 121,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘mda

O‘shish sur‘ati




Shahar va tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	Hajm, mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
Xorazm viloyati	416,7	100,0	121,3
Urganch sh	99,9	24,0	121,0
Xiva sh	17,6	4,2	126,2
Bog‘ot	29,7	7,1	120,2
Gurlan	27,1	6,5	119,9
Qo‘shko‘pir	31,2	7,5	120,6
Urganch	37,1	8,9	121,6
Hazorasp	34,8	8,3	122,1
Tuproqqal‘a	10,1	2,4	123,9
Xonqa	33,9	8,1	120,1
Xiva	26,9	6,5	121,7
Shovot	30,6	7,3	123,0
Yangiariq	21,4	5,2	119,6
Yangibozor	16,4	4,0	121,7

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

Mazkur seksiya kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali davlat tomonidan beriladigan yoki xususiy turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi. Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'limni qo'llab-quvvatlash faoliyati va boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar faoliyatini amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish qiymati (kontrakt o'qitish shakli) aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 353,2 mlrd. so'mga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 % ni tashkil etgan.



Shahar va tumanlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-iyun)


Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	353,2	100,0	100,1
Urganch sh	237,3	67,2	95,5
Xiva sh	42,5	12,0	106,9
Bog'ot	7,9	2,2	130,3
Gurlan	3,0	0,9	121,5
Qo'shko'pir	7,9	2,2	127,1
Urganch	14,0	4,0	116,9
Hazorasp	6,9	2,0	125,4
Tuproqqal'a	1,9	0,5	115,9
Xonqa	10,9	3,1	109,0
Xiva	4,7	1,3	88,6
Shovot	4,7	1,3	106,6
Yangiariq	6,5	1,9	110,9
Yangibozor	5,0	1,4	97,5

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 147,5 mlrd. so'mga ya'ni, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining 2,0 % iga yetdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etgan.

Taqqoslash uchun: 2023- yilda ushbu xizmatlar hajmi 128,9 mlrd. so'mni yoki ularning umumiy hajmining 2,2 % ini tashkil etgan.



Shahar va tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi, (2024- yil yanvar-iyun)


	Hajm mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	147,5	100,0	108,1
Urganch shahri	87,9	59,6	111,2
Xiva shahri	3,6	2,4	109,2
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	2,8	1,9	111,8
Gurlan	4,0	2,7	110,5
Qo'shko'pir	4,3	2,9	96,0
Urganch	27,2	18,4	102,3
Hazorasp	2,5	1,7	109,4
Tuproqqal'a	0,8	0,6	99,7
Xonqa	4,8	3,3	109,2
Xiva	3,0	2,0	87,1
Shovot	3,1	2,1	105,8
Yangiariq	2,0	1,4	113,8
Yangibozor	1,5	1,0	112,5

Sog'liqni saqlash sohasidagi ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi Urganch shahrida – 59,6 %, Urganch tumanida – 18,4 %, Xonqa tumanida – 3,3 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.



2023-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2024-yil yanvar-iyun oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 60,9 mlrd. so'mga oshib, 250,0 mlrd. so'mga yetdi, o'sish sur'ati esa 114,0 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

Yashash bo'yicha xizmatlar

80,0 %

20,0 %

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar


Shahar va tumanlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-iyun)

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	250,0	100,0	114,0
Urganch sh	98,5	39,4	109,6
Xiva sh	38,5	15,4	115,6
Bog'ot	13,2	5,3	110,0
Gurlan	2,9	1,2	111,5
Qo'shko'pir	3,0	1,2	111,4
Urganch	35,7	14,3	136,3
Hazorasp	7,0	2,8	110,2
Tuproqqal'a	2,8	1,1	120,0
Xonqa	14,0	5,6	109,9
Xiva	5,0	2,0	110,2
Shovot	13,3	5,3	109,9
Yangiariq	8,2	3,3	110,7
Yangibozor	7,9	3,1	109,7

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi 157,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 2,2 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 110,3 % ni tashkil etgan.



Shahar va tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi (2024-yil yanvar-iyun)

	Hajm mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	157,5	100,0	110,3
Urganch shahri	44,6	28,3	108,9
Xiva shahri	9,3	5,9	113,2
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	9,5	6,0	111,4
Gurlan	10,5	6,7	105,2
Qo'shko'pir	8,7	5,5	113,4
Urganch	11,5	7,3	105,6
Hazorasp	14,1	9,0	118,0
Tuproqqal'a	3,9	2,5	113,5
Xonqa	9,6	6,1	100,1
Xiva	8,0	5,1	113,9
Shovot	9,7	6,1	113,7
Yangiariq	9,2	5,8	113,7
Yangibozor	8,9	5,7	113,9


Shahar va tumanlar o'rtasida ko'chmas mulk bilan bog'liq ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 28,3 % ni tashkil etdi. Hazorasp 9,0 % ni va Urganch tumanida 7,3 % ni tashkil etdi.

2023-yilga nisbatan ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning o'sish sur'ati Urganch shahrida – 108,9 % ga, Xiva shahrida – 113,2 % darajasida qayd etildi.

Ijara xizmatlari

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

2023-yil yanvar-iyunga nisbatan ijara xizmatlari hajmi 2,5 mlrd. so'mga oshib, 2024-yil yanvar-iyunda 109,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 1,5 % ni tashkil etdi. 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 88,9 % ni tashkil etgan.




Shahar va tumanlar kesimida ijara xizmatlar hajmi

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	109,3	100,0	88,9
Urganch sh.	40,4	37,0	72,1
Xiva sh.	4,2	3,8	103,0
Bog'ot	6,7	6,1	103,1
Gurlan	5,4	5,0	103,1
Qo'shko'pir	5,5	5,0	103,0
Urganch	7,1	6,5	104,1
Hazorasp	5,9	5,4	103,7
Tuproqqal'a	3,5	3,2	102,8
Xonqa	6,0	5,5	100,5
Xiva	6,5	6,0	103,7
Shovot	6,4	5,8	102,9
Yangiariq	6,4	5,9	103,3
Yangibozor	5,3	4,8	102,9

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyafzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 289,4 mlrd. so'm qayd etilib, 2023- yilga nisbatan o'sish sur'ati 109,3 % ni tashkil etdi.



*Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar hajmi va o'sish sur'ati
(2024- yil yanvar-iyun)*

Shahar va tumanlar	Xizmatlar hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xorazm viloyati	289,4	100,0	109,3
Urganch sh	65,7	22,7	118,1
Xiva sh	20,9	7,2	105,4
Bog'ot	33,2	11,5	110,3
Gurlan	20,1	6,9	109,2
Qo'shko'pir	19,9	6,9	108,3
Urganch	19,8	6,8	111,4
Hazorasp	13,3	4,6	111,0
Tuproqqal'a	5,7	2,0	112,8
Xonqa	19,6	6,8	106,4
Xiva	22,1	7,6	106,3
Shovot	17,5	6,1	105,9
Yangiariq	16,5	5,7	100,0
Yangibozor	15,1	5,2	100,3


Urganch shahrida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi 65,7 mlrd. so'mga yetdi.

2023-yilga nisbatan Urganch shahrida o'sish sur'ati 118,1 % ni, Xiva shahrida bu ko'rsatkich 105,4 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar

Shaxsiy xizmatlar hajmi to‘qimachilik va mo‘ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash bo‘yicha, sartaroshxona va go‘zallik salonlari, dafn marosimlarini tashkil qilish xizmatlari va shu bilan bog‘liq xizmatlar jismoniy komfortni ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarni va boshqa guruhlariga kiritilmagan boshqa shaxsiy xizmatlarning qiymatini o‘z ichiga oladi.

2023- yil yanvar-iyunga nisbatan Shaxsiy xizmatlar hajmi 51,1 mlrd. so‘mga oshib, 2024- yilning yanvar-iyun oylarida 264,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi 3,6 % ni tashkil etdi. 2023- yil yanvar-iyunga nisbatan o‘shish sur‘ati 110,5 % ni tashkil etgan.



Shahar va tumanlar	Hajm mlrd. so‘mda	Ulushi, % da	O‘shish sur‘ati, % da
Xorazm viloyati	264,1	100,0	110,5
Urganch shahri	57,9	21,9	113,2
Xiva shahri	16,5	6,3	112,6
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	19,6	7,4	111,4
Gurlan	17,6	6,7	110,3
Qo‘shko‘pir	21,5	8,1	110,9
Urganch	17,2	6,5	110,8
Hazorasp	15,1	5,7	110,4
Tuproqqal‘a	3,9	1,5	108,5
Xonqa	15,9	6,0	105,9
Xiva	24,1	9,1	107,1
Shovot	18,5	7,0	109,2
Yangiariq	20,8	7,9	108,3
Yangibozor	15,5	5,9	111,3

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Shaxsiy xizmatlarning umumiy hajmida Urganch shahrining ulushi 21,9 % ni tashkil etgan.

Xizmatlar sohasi texnologiyalari va tarmoq tuzilmasining murakkablashishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati va xilma-xilligini yaxshilash, shuningdek, yuqori texnologiyali va intensiv xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar, tashkilot va xo‘jaliklarning samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga, aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.